ISSN:2828-6235
Impact factor:13.77

International Journal of Literature and Language Studies(IJLLS)

ESKI O‘ZBEK ADABIY TILI DAVRIGA XOS LINGVISTIK XUSUSIYATLAR

Allaberganova Adolat Atabek qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: adolatalloberganova@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.24529076

Annotatsiya: Ushbu maqolada eski o‘zbek adabiy tili davriga xos lingvistik xususiyatlar xiva adabiy muhiti vakillari ijodi orqali ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Eski o‘zbek tili, leksik,fonetik, til tarixi, me’yor

Аннотация. В данной статье исследуются лингвистические особенности, характерные для староузбекского литературного языка, на материале произведений деятелей хивинской литературной среды.

Ключевые слова: Древнеузбекский язык, лексика, фонетика, история языка, норма

Annotation. In this article, linguistic features characteristic of the Old Uzbek literary language are explored through the works of figures from the Khiva literary milieu.

Key words: Old Uzbek language, lexis, phonetics, history of the language, standard

Tilning shakllanishi va taraqqiyotini, shuningdek, ichki qonuniyatlarini ilmiy asosda chuqur o‘rganish natijasida fanga taalluqli ilmiy nazariyalar yanada boyib boraveradi. Zero, “Til vositasida insoniyat tomonidan jamg‘arilgan bilimlar qayd etiladi, saqlanadi va avloddan avlodga yetkaziladi. Til millat ruhining ko‘zgusidir. Tilda millatning bor-yo‘g‘i, o‘y-fikri, dunyoqarashi, orzu-umidlari, vatani, his-tuyg‘ulari gavdalanadi. Tildagi har bir so‘z, uning har bir shakli inson tafakkuri va tuyg‘usining natijasidir”[1]. Shu o‘rinda XIX asr oxiri XX asr boshlariga tegishli adabiy manbalar tilini lingvistik tahlil qilish, oldingi va keyingi davr til xususiyatlari bilan solishtirish, o‘ziga xos belgilarni aniqlash tilning takomillashishi hamda soha rivoji uchun ahamiyatli. Eski o‘zbek adabiy tilini o‘zida aks ettiruvchi manbalar tilini lingvistik tadqiq qilish dolzarb vazifalardandir. Shu qatorda, Mutrib Xonaxarobiy ijodi o‘zbek tili taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorazm adabiy muhiti, bu muhitning yorqin vakillari hayoti va ijodini yoritishda, asarlari tiliga xos xususiyatlarni belgilashda xonliklar davridagi ijtimoiy vaziyat ham alohida ahamiyatga ega. “Hozirgi zamon o‘zbek tili o‘z taraqqiyoti protsessida uzoq va murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. O‘zbek adabiy tilining qaysi bir rivojlanish etapi haqida fikr yuritmaylik, uni tilning egasi bo‘lgan o‘zbek xalqi tarixi bilan bog‘liq holdagina o‘rganishimiz mumkin”[2]. XIX asr oxiri va XX asr boshlari Xorazmda yashab ijod qilgan shoir Muhammad Hasan Hoji Tabib o‘g‘li el orasida Mutrib Xonaxarobiy nomi bilan shuhrat topgan.

Lingvistik jihatdan e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Mutrib asarlari tilini hozirgi o‘zbek tili bilan tenglashtirish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shoir ijodining birinchi davridagi ijodiy merosini hozirgi o‘zbek kitobxonlari biroz qiyinchilik bilan tushunsalar, keyingi davr ijod mahsulini osongina anglab yetadilar, chunki she’rlar yengil, xalq tilida bitilgan. XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiy tili tarixda yangi milliy adabiy tilning tashkil topishidagi boshlang‘ich davr sifatida ajralib turadi. Bu davr tili

[1] Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 6.
[2] Турдиалиев Б. Ҳамза ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.13.

o‘zining leksik, fonetik, grammatik xususiyatlari va uslub tarmoqlari jihatdan an’anaviy eski o‘zbek adabiy tilidan farqlanadi. Chunki ko‘p asrlardan beri iste’molda bo‘lib kelgan eski o‘zbek adabiy tili XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga kelib ijtimoiy muhitning o‘zgarishi, jamiyatda sodir bo‘la boshlagan yangiliklar tufayli jamiyat ehtiyojiga to‘laligicha javob berolmay qoladi. Shoir ijodi eski o‘zbek adabiy tilining yorqin namunasi desak, yangilishmaymiz. Mutrib Xonaxarobiy ijodi keyingi davrining shakllanishi – *o‘zbek milliy adabiy tilining shakllanishi va me’yorlashuvi* davriga to‘g‘ri keladi. O‘zbek adabiy tilining qaysi bir davri haqida fikr yuritmaylik, uni tilning egasi bo‘lgan o‘zbek xalqi tarixi bilan bog‘liq holdagina o‘rganishimiz mumkin. “Adabiy tilning o‘ziga xos spetsifik xususiyatlarini o‘sha xalqning konkret hayotidan, uning nutq madaniyatidan ajratgan holda o‘rganish mumkin emas”, – deb ta’kidlanadi[3]. Chindan ham har bir xalq tili va har bir ijodkor asarlari tilini o‘rganish va tahlil qilishda xalq tarixiga, ijtimoiy ahvoliga e’tibor qaratish tabiiy. Mutrib ijodiy faoliyatida matbuot muhim amaliy ahamiyatga egadir. Bu davrda ilk marta erkin ijodiy imkoniyatga ega bo‘lgan shoir yangi zamonni va mehnatkash zamondoshlarini o‘z she’rlarida madh etdi. Mutribning bu davrdagi ijodiy merosi, asosan, davriy matbuot sahifalaridan va “Yug‘urma” she’rlar to‘plamidan joy olgan. “Ayniqsa, yigirmanchi yillar matbuoti va adabiyotning mushtaraklik xususiyati diqqatga molik. Chunki yozuvchilar olg‘a surgan ma’rifiy fikrlarning keng va tez ommalashuvida matbuot eng qulay vosita edi. Mutrib ham mahalliy matbuotning jonkuyar ishtirokchisi sifatida faoliyat ko‘rsatadi”[4].

Professor A.K.Borovkov bu davr tili xususida to‘xtalib, XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiy tili umummilliy adabiy tilning tashkil topishidagi boshlang‘ich etap ekanligini[5] qayd qilgan edi. “Eski o‘zbek tili” yoki “Eski o‘zbek adabiy tili” XIV asr ikkinchi yarmidan XX asrning 30-yillarigacha[6] bo‘lgan o‘zbek tili tarixini o‘z ichiga oladi, shu bilan birga, juda ko‘p manbalar bu davrga oid deb qaraladi va davr tiliga nisbatan “chig‘atoy tili” termini qo‘llanadi. Turkiy tillarni qiyosan chuqur o‘rgangan tilshunos H.Dadaboyev A.Samoylovich “chig‘atoy tili” deganda chig‘atoylar va temuriylar davrida o‘troqlashgan va turkiylashgan ko‘chmanchi xalqqa xos jonli so‘zlashuv tilini tushunish kerakligini hamda temuriylar davrida ijod qilingan asarlar tiliga nisbatan qo‘llash zarurligini ta’kidlaganligi haqida ma’lumot beradi[7]. Bu kabi ma’lumotlardan kelib chiqib Mutrib she’riyati tiliga nisbatan “chig‘atoy tili” atamasini qo‘llash noo‘rin. Demak, so‘z yuritilayotgan davrga oid xoh nasriy, xoh lirik asarlar tilini yoritish va tahlil qilish orqali milliy til elementlarining dastlabki bosqichini aniq tasvirlay olamiz. Mutrib Xonaxarobiy she’riyatining keyingi, ya’ni ikkinchi bosqichga kiritilayotgan davri aynan o‘zbek milliy tilining dastlabki bosqichlariga xos bo‘lgan belgilarni namoyon qila oladi. Shoirning yangi zamon she’rlarida quyidagicha til shaklini ko‘rishimiz mumkin:

Bu hurriyatda olam bo‘ldi obod,

Quvonib, ey xaloyiqlar, bo‘ling shod[8].
Yoki masnaviy oxirida:

Muborak bo‘lsun endi ushbu davron,

Duoyi xayr et, ey Mutrib, san ayon.

---

[3] Виноградов V.V. Проблемы литературных языков и закономерностей их образования и развития. – М., 1967, – С. 44.
[4] Пирназаров М. Мутриб Хонахаробий. Рисола-мажмуа. – Тошкент, 2001. – Б. 3.
[5] Боровков А.К. Ўзбек литературный язык в период 1905 – 1917 г. Т.1940. – С. 2.
[6] Abdushukurov B. O‘zbek adabiy tili tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Excellent polygraphy, 2021. – B.12.
[7] Qarang: Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 14.
[8] Хоразм хабарлари, 1921 йил 13 сентябрь, № 3.

Ushbu masnaviyda hozirgi o‘zbek adabiy tiliga xos leksik shakllar ko‘zga tashlanadi. Ijodkor she’riyatining dastlabki bosqichi esa bevosita tilning eski turkiy til davridan ajralib eski o‘zbek adabiy tili davriga o‘tayotgan davrdagi tilning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini namoyon qiladi:

*Sham’i husn*ingdin bu tun nur ziyo istar ko‘ngul,

*Murg‘ vasl*ingni dardig‘a davo istar ko‘ngul.

Topg‘ali bir lahza hajr *anduh*din ozodlig‘,

Ganji *lutf*ingni o‘ziga rahnamo istar ko‘ngul. (DMX.128[b])

Ushbu g‘azalda qo‘llangan *sham’i husn, murg‘ vasl, anduh, lutf* kabi so‘zlar davr tilining dastbki bosqichlarida qo‘llanilgan. Eski o‘zbek adabiy tilining keyingi davrlarida esa kam ishlatilgan va hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham badiiy uslubga xos, iste’moldan chiqqan leksemalar sifatida qaraladi. Zero, Mutrib yashagan zamonda ham temuriylar davriga oid bo‘lgan manbalar tiliga xos uslub va ifodalar o‘z aksini topgan: “XVI-XIX asr birinchi yarmi o‘zbek adabiy tili leksikasi tarkibiga nazar tashlash, uni har tomonlama tahlil va tasnif qilish so‘z boyligi tizimida XIV asr ikkinchi yarmi, ayniqsa, XV asrga xos leksemalarning deyarli saqlanib qolganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, har qanday tilning leksik tarkibida hayotdagi ijtimoiy o‘zgarishlar oqibatida yuz beruvchi jarayonlarning qayd etilgan eski o‘zbek tili leksikasi uchun ham mustasno emasligini urg‘ulash zarur”[9]. Mutrib ijodining birinchi bosqichida, ya’ni XIX asr oxirlarida ham XV asrga xos leksik birliklarni uchratishimiz tabiiy, chunki e’tirof qilinganidek, shoir Navoiy ijod uslubini o‘ziga andoza qilgan va salaflar ijodiga mehr qo‘ygan holda o‘z ijodini davom qildirgan.

Ilmiy kuzatishlar natijasidan ma’lumki, hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lgan “*men*” birinchi shaxs kishilik olmoshiga eski o‘zbek adabiy tilida qo‘shimcha qo‘shilish, yoki qo‘shilmasligidan qat’i nazar birinchi bo‘g‘inda “*e*” tovushi saqlanadi. Xorazm adabiy muhitida ijod etgan ijodkorlarning asarlarida esa ko‘proq jonli tilga xos bo‘lgan “*a*” tovushiga aylanganining guvohi bo‘lamiz. Masalan, Avaz O‘tar she’rlarida:

Man ham ondin o‘zgaga dil bermagayman borho,

*Man*din o‘zga hech birov ham yora oshiq bo‘lmag‘ay [10] .

Bundan tashqari, birinchi va ikkinchi shaxs kishilik olmoshlarini *mango*, *sango* tarzida qo‘llanganini uchratamiz. Natijada tildagi “*e*” tovushi “*a*” tarzida, *-ga* jo‘nalish kelishigi esa *-go* tarzida qo‘llangan. Bu so‘zlardan ko‘proq radifda foydalanilgan:

Hijronida garchi o‘lar holatga yetkursa mani,

Ishrat tuni, ey Mutribo, osoyishi shondur *mango.*

Yoki *sango* tarzida:

Ko‘rgach yuzingni bo‘lmisham majnuni sargardon *sango,*

Yo‘q chorayi dardi dilim fosh etgali pinhon *sango.* (DMX, 4[a])

Uchinchi shaxs kishilik olmoshining ko‘pligini esa *alar* shaklida uchratamiz:

[9] Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 119.
[10] Аваз Ўтар. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 101.

Yoshlar ilm hunar ichra topib ancha jilo,

Kim *alar* ham bori ustod o‘lanig‘a sevining[11].

Avaz O‘tarda:

Ko‘ngullarning sururi, dog‘i ko‘zlar nuridur farzand,

*Alar*ning umrini, albatta, obod etgusi maktab[12].

Yuqoridagi misralarda faqatgina leksik jihatdan yaqinlik emas, balki mavzu va g‘oyaviy bir xillik ham mavjud. Zero ikkala ijodkorning misralarida, jamiyat markazida bosh qahramon – yoshlar birinchi o‘ringa chiqarilgan va she’rni o‘qish orqali ularning maktab bolasi bo‘lishi, yashashi, kamol topishi, ilm-hunar egallashi zarurligini uqib olamiz.

Adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 6.
2. Турдиалиев Б. Ҳамза ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.13.
3. Виноградов V.V. Проблемы литературных языков и закономерностей их образования и развития. – М., 1967, – С. 44.
4. Пирназаров М. Мутриб Хонахаробий. Рисола-мажмуа. – Тошкент, 2001. – Б. 3.
5. Боровков А.К. Ўзбек литературный язык в период 1905 – 1917 г. Т.1940. – С. 2.

[11] Хоразм хабарлари, 1921 йил 14 октябрь, № 28.
[12] Аваз Ўтар. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 38.